Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

SANOATDA QAYTA ISHLASH VA BOSHQARUV SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI (IPAK SANOATI MISOLIDA)

Atabayev Izzatbek Xayitbay o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tinglovchisi
E-mail: izzatbekbk@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22137664

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston ipak sanoatida qayta ishlash zanjirini chuqurlashtirish va tarmoq boshqaruvi siyosatini takomillashtirish masalalari 2017-2025-yillarning amaldagi rasmiy statistik ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda dinamik qatorlar, o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati, variatsion, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, tirik pilla yetishtirish 2,40 barobar, xom ipak ishlab chiqarish 6,07 barobar, eksport hajmi 2,82 barobar, bandlik esa 4,68 barobar oshgan. Ayni paytda pilladan xom ipak chiqishi koeffitsienti 2018-yildan buyon 10,2-11,0 foiz oralig‘ida (variatsiya koeffitsienti 2,2 foiz) turg‘unlashgan, bir tonna xomashyoga to‘g‘ri keladigan eksport tushumi esa atigi 1,17 barobarga, ya’ni yillik 2,0 foizga o‘sgan va yuqori darajada beqaror (variatsiya koeffitsienti 24,4 foiz, trend determinatsiyasi $R^2 = 0,005$). Tadqiqot natijasida tarmoq boshqaruvida tartibga soluvchi va xo‘jalik yurituvchi funksiyalarni ajratish, sifatga bog‘langan narx shakllantirish tizimini joriy etish, soliq imtiyozlari va investitsiyalarni natijaviy ko‘rsatkichlarga bog‘lash hamda yagona raqamli monitoring tizimini yaratish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: ipak sanoati, pillachilik, qayta ishlash chuqurligi, qo‘shilgan qiymat, sanoat siyosati, klaster, tarmoq boshqaruvi, qiymat zanjiri, eksport barqarorligi, variatsiya koeffitsienti, korrelyatsion tahlil, regressiya, raqamli monitoring.

AND STATISTICAL ANALYSIS OF IMPROVING INDUSTRIAL PROCESSING AND MANAGEMENT POLICY (ON THE EXAMPLE OF THE SILK INDUSTRY)

Annotation: the article analyses the deepening of the processing chain and the improvement of sectoral governance policy in the silk industry of Uzbekistan on the basis of actual official data for 2017-2025. The study applies time-series analysis, compound annual growth rates, variation, correlation and regression methods. The calculations show that fresh cocoon output increased 2,40 times, raw silk production 6,07 times, exports 2,82 times and employment 4,68 times. At the same time the raw silk conversion ratio has stagnated at 10,2-11,0 per cent since 2018 (coefficient of variation 2,2 per cent), while export revenue per ton of raw material grew only 1,17 times, or 2,0 per cent annually, and remains highly unstable (coefficient of variation 24,4 per cent, trend $R^2 = 0,005$). Accordingly, proposals have been developed on separating regulatory and commercial functions, introducing quality-based pricing, linking tax incentives and investment to performance indicators, and creating a unified digital monitoring system.
Key words: silk industry, sericulture, processing depth, value added, industrial policy, cluster, sectoral governance, value chain, export stability, coefficient of variation, correlation analysis, regression, digital monitoring.

Kirish. Ipakchilik O‘zbekiston yengil sanoatining tarixan shakllangan, mehnat sig‘imi yuqori va qishloq joylarida bandlikni ta’minlash salohiyati katta bo‘lgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tarmoqning o‘ziga xosligi shundaki, u qishloq xo‘jaligi (tutzorlar va pilla yetishtirish), sanoat (xom ipak, ipak matolar) hamda hunarmandchilik (atlas, adras, ipak gilamlar) bo‘g‘inlarini yagona qiymat zanjirida birlashtiradi. Shu bois tarmoqni rivojlantirish siyosati faqat agrar yoki faqat sanoat siyosati doirasida emas, balki zanjir bo‘ylab muvofiqlashtirilgan tarmoqlararo boshqaruv modeli asosida ko‘rilishi maqsadga muvofiqdir.

So‘nggi yillarda tarmoqda islohotlar jadallashdi. 2017-yilda “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tashkil etilib, 200 dan ortiq korxona, 13 ta hududiy va 144 ta tuman “Agropilla” tuzilmalari yagona tizimga birlashtirildi [1]. 2025-yildan boshlab pilla xarid narxini davlat tomonidan belgilash, tumanlarni klasterlarga majburiy biriktirish hamda yetishtirilgan mahsulotni faqat klasterlarga sotish talabi bosqichma-bosqich bekor qilinib, tarmoq bozor tamoyillariga o‘tkazila boshlandi [2].

Shu bilan birga tarmoqning tizimli muammosi saqlanib qolmoqda: mahalliy pilladan yuqori sifatli xom ipak olish va uni chuqur qayta ishlash ulushi past darajada qolayotgani rasmiy darajada e’tirof etilgan [3]. Mazkur maqolaning maqsadi - tarmoqdagi o‘sish omillarini 2017-2025-yillarning amaldagi statistik ma’lumotlari asosida miqdoriy baholash, qiymat zanjiridagi uzilishlarni aniqlash va boshqaruv siyosati chora-tadbirlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Sanoat siyosati va qiymat zanjirini chuqurlashtirish masalalari xorijiy adabiyotlarda global qiymat zanjirlari nazariyasi doirasida keng o‘rganilgan. G.Gereffi, J.Humphrey va T.Sturgeon [9] tadqiqotlarida xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish “funksional modernizatsiya” sifatida talqin qilinib, bu jarayonda davlatning koordinatsion roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi asoslangan. D.Rodrik [10] esa sanoat siyosatining samaradorligi imtiyozlarning natijaviy shartlarga bog‘lanishiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatib bergan.

Milliy adabiyotlarda ipakchilik masalalari asosan agrotexnik va texnologik jihatdan tadqiq etilgan. Pillaga dastlabki ishlov berish, xom ipak sifatiga ta’sir etuvchi omillar hamda resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti olimlarining ilmiy ishlarida yoritilgan [4].

Shunga qaramay, tarmoq boshqaruvining institutsional modeli - tartibga soluvchi organ, klaster va uy xo‘jaligi darajasidagi ishlab chiqaruvchi o‘rtasidagi vakolatlar taqsimoti, soliq imtiyozlarining natijaviy samarasi hamda qayta ishlash chuqurligining iqtisodiy o‘lchovi yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqola shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot usullari. Maqolada statistik kuzatish, guruhlash, mutlaq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar, dinamik qatorlar tahlili, iqtisodiy indekslar, struktura tahlili, variatsion, korrelyatsion hamda regression tahlil usullaridan foydalanilgan. Ma’lumotlar manbayi sifatida “O‘zbekipaksanoat” uyushmasining pillachilik sohasi bo‘yicha 2017-2025-yillar amaldagi ko‘rsatkichlari [5], O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda rasmiy hukumat manbalari xizmat qilgan. Barcha hisob-kitoblar 2017-2025-yillarning amaldagi ma’lumotlari asosida bajarilgan.

O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati (CAGR) quyidagi formula bo‘yicha hisoblangan:

$T = (Yn / Y0)^{(1/n)} - 1$

bu yerda: Yn - hisobot yili ko‘rsatkichi; Y0 - bazis yil ko‘rsatkichi; n - davrdagi yillar soni.

Pilladan xom ipak chiqishi (qayta ishlash) koeffitsienti:

$Kq = (Xi / Pi) \times 100$

bu yerda: Xi - i-yilda ishlab chiqarilgan xom ipak hajmi; Pi - i-yilda yetishtirilgan tirik pilla hajmi.

Qo‘shilgan qiymat intensivligi - bir tonna pilla xomashyosiga to‘g‘ri keladigan eksport tushumi:

$VAI = E / P$

bu yerda: E - ipak va ipak mahsulotlari eksporti hajmi (ming AQSh dollari); P - yetishtirilgan tirik pilla hajmi (tonna).

Ko‘rsatkichlar qatorining barqarorligi variatsiya koeffitsienti orqali baholangan:

$V = (\sigma / \bar{y}) \times 100$

bu yerda: σ - o‘rtacha kvadratik chetlanish; ȳ - qatorning o‘rtacha arifmetik qiymati. V < 10 foiz bo‘lganda qator barqaror, V > 20 foiz bo‘lganda beqaror hisoblanadi. Omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik zichligi juft korrelyatsiya koeffitsienti (r) orqali, ozuqa bazasining hosilga ta’siri esa chiziqli regressiya tenglamasi orqali aniqlangan.

Tahlil va natijalar. Tarmoqning 2017-2025-yillardagi asosiy ishlab chiqarish, eksport, investitsiya va bandlik ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ipak sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi (2017-2025-yillar, amalda)

Ko‘rsatkichlar (o‘lchov birligi)	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.	2025/2017, marta
Tirik pilla yetishtirish, ming tonna	12,5	18,0	19,6	21,8	22,7	24,2	25,9	29,97	30,0	2,40
Xom ipak ishlab chiqarish, ming tonna	0,526	1,910	2,037	2,222	2,378	2,544	2,843	3,129	3,191	6,07
Ipak momig‘i, ming tonna	0,455	0,511	0,679	0,741	0,793	1,200	1,362	1,490	1,520	3,34
Kalavalangan ipak ip, ming tonna	-	0,261	0,359	0,653	0,816	1,122	1,538	1,564	1,596	6,11*
Ipak mato, ming pog. metr	0,8	2933	4033	7334	9155	12342	16860	16996	17336	5,91*
Ipak gilam, dona	-	60	90	109	342	885	1242	1266	1297	21,6*
Tayyor ipakli mahsulotlar, ming dona	-	60,5	403,3	653,7	935,7	1694,6	5201,1	5294,3	5400,1	89,3*
Eksport hajmi, mln AQSh dollari	30,9	50,7	72,2	76,5	54,2	96,2	94,2	52,6	87,0	2,82
Investitsiyalarni jalb qilish, mln dollar	13,6	50,7	68,1	95,3	85,0	25,0	16,3	23,5	45,5	3,35
shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya	1,7	1,9	2,05	3,26	3,3	1,0	-	18,0	45,5	26,8
Bandlik, ming nafar	305,0	425,4	640,1	761,0	862,5	1130,6	1175,8	1222,9	1427,9	4,68
shundan doimiy	8,0	14,4	18,3	24,4	32,6	100,0	104,0	108,2	110,3	13,8
shundan mavsumiy	297,0	411,0	621,8	736,6	829,9	1030,6	1071,8	1114,7	1317,6	4,44

Manba: “O‘zbekipaksanoat” uyushmasining pillachilik sohasi bo‘yicha 2017-2025-yillar amaldagi ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumoti asosida muallif tomonidan tuzilgan [5]. Izoh: (*) belgisi qo‘yilgan qatorlarda ko‘rsatkich 2017-yilda qayd etilmagani bois bazis yil sifatida 2018-yil olingan; “-” - ma’lumot mavjud emas yoki ko‘rsatkich qayd etilmagan.

Jadval ma’lumotlari 2017-yildan keyin tarmoqda sodir bo‘lgan miqyosli o‘zgarishlarni aks ettiradi. Tirik pilla yetishtirish 2025-yilda 2017-yilga nisbatan 2,40 barobarga, xom ipak ishlab chiqarish 6,07 barobarga, ipak momig‘i 3,34 barobarga, eksport hajmi 2,82 barobarga, bandlik esa 4,68 barobarga oshgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2017-2025-yillar oralig‘ida (8 yil) o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati tirik pilla bo‘yicha T = (30,0 / 12,5)^(1/8) - 1 = 11,6 foizni, xom ipak bo‘yicha 25,3 foizni, eksport bo‘yicha 13,8 foizni, bandlik bo‘yicha esa 21,3 foizni tashkil etadi.

Eng yuqori o‘sish sur’atlari qiymat zanjirining chuqur qayta ishlash bo‘g‘inlarida qayd etilgan. Ushbu mahsulot turlari 2017-yilda ishlab chiqarilmagani bois 2018-yil bazis sifatida olinganda, 2018-2025-yillarda tayyor ipakli mahsulotlar 89,3 barobarga, ipak gilamlar 21,6 barobarga, kalavalangan ipak ip 6,11 barobarga, ipak mato esa 5,91 barobarga ko‘paygan. Bu tarmoqda yuqori qayta ishlash bosqichlari amalda nolinchi darajadan boshlab shakllantirilganini ko‘rsatadi.

Ayni paytda eksport dinamikasi yuqori darajada beqaror bo‘lib qolmoqda. Eksport hajmi 2017-yildagi 30,9 mln dollardan 2022-yilda 96,2 mln dollargacha o‘sgan, 2024-yilda 52,6 mln dollargacha, ya’ni 45,3 foizga keskin pasaygan va 2025-yilda yana 87,0 mln dollarga tiklangan. Eksport qatorining variatsiya koeffitsienti V = 32,9 foizni tashkil etadi. Shunga o‘xshash beqarorlik investitsiya oqimida ham kuzatiladi: 2020-yildagi 95,3 mln dollardan 2023-yilda 16,3 mln dollarga, ya’ni 5,8 barobarga kamaygan va 2025-yilda 45,5 mln dollargacha tiklangan. Shu bilan birga 2025-yilda jalb etilgan investitsiyalarning barchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya hisobiga to‘g‘ri kelgani tarmoqning xorijiy investorlar uchun jozibadorligi ortayotganidan dalolat beradi.

Tarmoqning ozuqa bazasi va urug‘chilik ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ozuqa bazasi va ipak qurti urug‘chiligi ko‘rsatkichlari dinamikasi (2017-2025-yillar, amalda)

Ko‘rsatkichlar (o‘lchov birligi)	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.	2025/2017, marta
Tut ko‘chatlari ekish, mln tup	2,9	32,9	63,1	82,1	120,4	123,0	122,4	124,5	125,6	43,3
Tutzorlar maydoni, ming gektar	43,6	46,3	48,7	50,3	54,8	54,8	54,8	54,0	54,0	1,24
shundan yangi barpo etilgan	0,2	2,6	2,4	4,8	4,5	-	-	-	-	-
Mahalliy tayyorlangan urug‘, ming quti	81,7	81,8	157,8	185,8	240,0	248,5	289,7	265,1	300,0	3,67
Ipak qurti parvarishlash, ming quti	462,1	393,6	350,0	381,8	401,2	421,8	443,5	466,5	500,1	1,08
shundan mahalliy urug‘	201,7	23,8	83,0	124,2	166,1	235,5	178,9	254,2	230,1	1,14
shundan xorijiy urug‘	260,4	369,8	267,0	257,6	235,1	186,3	264,6	212,3	270,0	1,04

Manba: “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [5].

Ozuqa bazasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha eng katta o‘sish tut ko‘chatlari ekish hajmida qayd etilgan - 2,9 mln tupdan 125,6 mln tupga, ya’ni 43,3 barobarga. Biroq tutzorlar maydoni shu davrda atigi 1,24 barobarga (43,6 ming gektardan 54,0 ming gektarga) kengaygan va 2021-yildan boshlab deyarli o‘zgarmagan, hatto 2024-2025-yillarda 0,8 ming gektarga qisqargan. Bu tut ko‘chatlarining asosiy qismi

yangi tutzorlar barpo etishga emas, balki mavjud maydonlarni zichlashtirish, yakka qator ekish va eskirgan tutzorlarni almashtirishga yo‘naltirilganini bildiradi.

Ipak qurti parvarishlash hajmi 2017-yilga nisbatan atigi 1,08 barobarga oshgan (462,1 ming qutidan 500,1 ming qutiga). Bu pilla hosilining 2,40 barobar ortishi asosan bir quti urug‘dan olinadigan hosildorlikning oshishi hisobiga ta’minlanganini ko‘rsatadi: 2017-yilda bir quti urug‘dan o‘rtacha 27,1 kg, 2024-yilda eng yuqori ko‘rsatkich - 64,3 kg, 2025-yilda esa 60,0 kg pilla olingan. Hosildorlikning 2,21 barobar oshishi tarmoqdagi eng muhim intensiv o‘sish omili hisoblanadi.

Mahalliy korxonalar tomonidan tayyorlanadigan urug‘ hajmi 3,67 barobarga (81,7 ming qutidan 300,0 ming qutiga) oshgan bo‘lsa-da, amalda parvarishlashda foydalanilgan mahalliy urug‘ hajmi atigi 1,14 barobarga ortgan. Natijada mahalliy urug‘ ulushi beqaror bo‘lib qolmoqda: 2017-yilda 43,6 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda 6,0 foizgacha pasaygan, 2022-yilda 55,8 foizga ko‘tarilgan, 2023-yilda yana 40,3 foizga tushgan, 2024-yilda 54,5 foizga ko‘tarilib, 2025-yilda 46,0 foizni tashkil etgan. Sakkiz yil davomida ko‘rsatkichning 6,0 foizdan 55,8 foizgacha tebranishi tarmoqning tashqi yetkazib beruvchilarga bog‘liqligi saqlanib qolayotganini va urug‘chilikda barqaror ishlab chiqarish tizimi hali shakllanmaganini bildiradi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblangan analitik koeffitsientlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval
Ipak sanoati samaradorligining hisoblangan analitik ko‘rsatkichlari (2017-2025-yillar)

Hisoblangan ko‘rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 y.	2025/2017, marta
Pilladan xom ipak chiqishi (Kq), foizda	4,21	10,61	10,39	10,19	10,47	10,51	10,98	10,44	10,64	2,53
1 tonna pillaga eksport (VAI), ming dollar	2,472	2,817	3,684	3,509	2,388	3,975	3,637	1,755	2,900	1,17
Bir quti urug‘dan hosildorlik, kg	27,1	45,7	56,0	57,1	56,6	57,4	58,4	64,3	60,0	2,21
Mahalliy urug‘ ulushi, foizda	43,6	6,0	23,7	32,5	41,4	55,8	40,3	54,5	46,0	1,06
Doimiy bandlik ulushi, foizda	2,6	3,4	2,9	3,2	3,8	8,8	8,8	8,8	7,7	2,96
1 tonna pillaga investitsiya, ming dollar	1,088	2,817	3,474	4,372	3,744	1,033	0,629	0,784	1,517	1,39

Manba: 1- va 2-jadval ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

3-jadval tarmoq rivojlanishining sifat jihatlarini raqamlarda ochib beradi. Birinchidan, pilladan xom ipak chiqishi koeffitsienti 2017-yildagi 4,21 foizdan 2018-yilda 10,61 foizga keskin ko‘tarilgan va shundan buyon 10,19-10,98 foiz oralig‘ida turg‘un holatda qolmoqda. 2018-2025-yillar bo‘yicha ushbu qatorning o‘rtacha qiymati 10,53 foizni, variatsiya koeffitsienti esa atigi 2,2 foizni tashkil etadi. Statistik nuqtai nazardan bu mutlaq barqarorlikni, iqtisodiy nuqtai nazardan esa texnologik turg‘unlikni anglatadi: sakkiz yil davomida qayta ishlashning texnologik samaradorligi amalda oshmagan va xom ipak ishlab chiqarishning butun o‘sishi faqat xomashyo hajmining ko‘payishi hisobiga erishilgan. Buni korrelyatsion tahlil ham tasdiqlaydi - tirik pilla va xom ipak hajmlari o‘rtasidagi bog‘liqlik zichligi r = 0,972 ni tashkil etadi (4-jadval).

Ikkinchidan, qo‘shilgan qiymat intensivligi ko‘rsatkichi o‘smoqda, biroq nihoyatda sekin va beqaror. 2017-yilda bir tonna pillaga 2 472 dollar eksport tushumi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 2 900 dollarni, ya’ni 1,17 barobarni tashkil etgan; o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati atigi 2,0 foizga teng. Ayni davrda xomashyo hajmi yillik 11,6 foizga o‘sganini hisobga olsak, tarmoq o‘sishining deyarli butunlay ekstensiv omil hisobiga ta’minlanayotgani ko‘rinadi. Bundan tashqari qator ichida ko‘rsatkich 1 755 dollardan (2024-yil) 3 975 dollargacha (2022-yil), ya’ni 2,26 barobar oralig‘ida tebranadi; variatsiya koeffitsienti V = 24,4 foizni, chiziqli trend tenglamasining determinatsiya koeffitsienti esa R^2 = 0,005 ni tashkil etadi. Demak, ko‘rsatkichda statistik jihatdan ishonchli o‘sish trendi mavjud emas va tarmoq qo‘shilgan qiymat bo‘yicha barqaror traektoriyaga hali chiqmagan.

Uchinchidan, bandlik tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilda tarmoqdagi 1 427,9 ming nafar bandning atigi 110,3 ming nafari (7,7 foizi) doimiy ish o‘rinlariga to‘g‘ri keladi. 2017-yildagi 2,6 foizga nisbatan bu ko‘rsatkich 2,96 barobar yaxshilangan bo‘lsa-da, 2022-2024-yillardagi 8,8 foizdan pasaygan, chunki mavsumiy bandlik doimiy bandlikka qaraganda tezroq o‘sgan. Natijada tarmoq bandligining 92,3 foizi mavsumiy xarakterga ega bo‘lib qolmoqda. Doimiy ish o‘rinlari asosan chuqur qayta ishlash bosqichida shakllanadi, shu bois ushbu ko‘rsatkich qayta ishlash chuqurligining bilvosita o‘lchovi sifatida ham qaralishi mumkin.

To‘rtinchidan, bir tonna pillaga to‘g‘ri keladigan investitsiya hajmi 2020-yildagi eng yuqori nuqta - 4 372 dollardan 2023-yilda 629 dollargacha, ya’ni qariyb 7 barobarga kamaygan va 2025-yilda 1 517 dollargacha tiklangan. Bu 2017-yilgi darajadan 1,39 barobar yuqori bo‘lsa-da, 2019-2021-yillardagi darajadan 2,3-2,9 barobar past bo‘lib qolmoqda. Investitsiya faolligining bunday tebranishi tarmoqda uzoq muddatli qayta ishlash quvvatlarini shakllantirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik zichligini baholash maqsadida juft korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblangan (4-jadval).

4-jadval

Ipak sanoati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik (2017-2025-yillar)

Bog‘liqlik yo‘nalishi	Korrelyatsiya koeffitsienti (r)	Bog‘liqlik darajasi va talqini
Tirik pilla - xom ipak ishlab chiqarish	0,972	juda kuchli; xomashyo hajmi bevosita xom ipak hajmini belgilaydi
Tirik pilla - bandlik	0,962	juda kuchli; tarmoq bandligi xomashyo bosqichida shakllanadi
Tirik pilla - ipak mato ishlab chiqarish	0,958	juda kuchli; to‘qimachilik bo‘g‘ini xomashyoga to‘liq bog‘langan
Tut ko‘chatlari - tirik pilla	0,914	kuchli; ozuqa bazasi hosilning asosiy omili
Xom ipak - eksport hajmi	0,655	o‘rtachadan yuqori; qayta ishlangan mahsulot eksportga qisman o‘tadi
Tirik pilla - eksport hajmi	0,583	o‘rtacha; xomashyo o‘sishi eksportga to‘liq o‘tmaydi
Investitsiya - eksport hajmi (bir yildagi)	0,011	bog‘liqlik amalda yo‘q
Investitsiya (t-1) - eksport (t)	0,146	juda zaif; investitsiyalarning kechikkan samarasi ham past

Manba: 1- va 2-jadval ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Korrelyatsion tahlil natijalari qiymat zanjirining aniq bir bo‘g‘inda uzilganini ko‘rsatadi. “Ozuqa bazasi → pilla → xom ipak → ipak mato” zanjirida bog‘liqlik zichligi 0,914-0,972 oralig‘ida, ya’ni juda kuchli. Biroq “xom ipak → eksport tushumi” bog‘lanishida koeffitsient 0,655 gacha, “xomashyo → eksport tushumi” bog‘lanishida esa 0,583 gacha pasayadi; investitsiya va eksport o‘rtasida statistik bog‘liqlik amalda kuzatilmaydi (r = 0,011), kechikkan ta’sir hisobga olinganda ham u juda zaif bo‘lib qolmoqda (r = 0,146). Bu tarmoqdagi investitsiyalar asosan xomashyo bazasini kengaytirishga yo‘naltirilib, eksport qiymatini oshiradigan yuqori qayta ishlash bosqichlariga yetarlicha yo‘naltirilmayotganini bildiradi.

Ozuqa bazasining hosilga ta’sirini aniqlash maqsadida chiziqli regressiya tenglamasi qurilgan:

$$P = 0{,}1116 \times T + 12{,}862; \quad R^2 = 0{,}836, \qquad (5)$$

bu yerda: P - tirik pilla hajmi (ming tonna); T - ekilgan tut ko‘chatlari hajmi (mln tup). Determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0{,}836$ pilla hosilidagi o‘zgarishlarning 83,6 foizi ozuqa bazasining kengayishi bilan izohlanishini ko‘rsatadi. Tenglamaga ko‘ra, qo‘shimcha 10 mln tup tut ko‘chati ekish o‘rtacha 1,12 ming tonna qo‘shimcha pilla hosili berishi mumkin. Ayni paytda o‘rtacha nuqtada hisoblangan elastiklik koeffitsienti 0,434 ni tashkil etadi: ozuqa bazasi 1 foizga kengayganda hosil atigi 0,43 foizga ortadi. Bu ekstensiv omilning samaradorligi pasayib borayotganini va keyingi o‘sish intensiv omillar hisobiga ta’minlanishi lozimligini tasdiqlaydi.

Tarmoq oldiga 2026-2030-yillarga qo‘yilgan istiqbolli vazifalar [3] 5-jadvalda 2025-yilda erishilgan amaldagi daraja bilan qiyoslangan.

5-jadval

2026-2030-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar va 2025-yil bazasi

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2025 y. (amalda)	2030 y. (maqsad)	2030/2025, marta
Tirik pilla yetishtirish	ming tonna	30,0	36,0	1,20
Xom ipak ishlab chiqarish	ming tonna	3,191	3,0	0,94
Ipak mato ishlab chiqarish	mln pog. metr	17,336	18,5	1,07
Eksport hajmi	mln AQSh dollari	87,0	250,0	2,87
Mahalliy urug‘ ulushi	foizda	46,0	75,0	1,63
Tut ko‘chatlari	mln tup	125,6	200,0	1,59
1 tonna pillaga eksport (VAI)	ming dollar	2,900	6,944	2,39

Manba: 2025-yilning amaldagi ko‘rsatkichlari - “O‘zbekipaksanoat” uyushmasining 2017-2025-yillar bo‘yicha ma’lumoti [5]; 2030-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2026-yil 17-fevralda ipakchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan taqdimot materiallari [3]; nisbatlar muallif tomonidan hisoblangan. Izoh: VAI ning 2030-yilgi qiymati 250,0 mln dollar eksport va 36,0 ming tonna pilla ko‘rsatkichlari nisbati sifatida hisoblangan.

5-jadval maqsadli ko‘rsatkichlar tizimidagi ichki nomutanosiblikni ochib beradi. Eksport hajmini 2,87 barobar oshirish vazifasi qo‘yilgan holda, xomashyo hajmi atigi 1,20 barobarga, ipak mato ishlab chiqarish esa 1,07 barobarga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Demak, eksport o‘sishining hal qiluvchi qismi mahsulot birligi qiymatini oshirish, ya’ni sifat, assortiment va brend hisobiga ta’minlanishi lozim: bir tonna xomashyoga to‘g‘ri keladigan eksport tushumi 2,39 barobar, ya’ni o‘rtacha yillik 19,0 foizga ko‘payishi talab etiladi. 2017-2025-yillarda ushbu ko‘rsatkich yillik atigi 2,0 foizga o‘sganini hisobga olsak, belgilangan vazifa mavjud tendensiyadan qariyb o‘n barobar yuqori sur’atni talab etadi va bu amaldagi siyosat vositalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Alohida e’tiborga loyiq holat shundaki, ayrim maqsadli ko‘rsatkichlar 2025-yilda allaqachon bajarilgan yoki unga juda yaqin. Xususan, xom ipak ishlab chiqarish bo‘yicha 2030-yilga belgilangan 3,0 ming tonnalik ko‘rsatkich 2025-yilda 3,191 ming tonna hajmda amalda oshib ketgan, ipak mato bo‘yicha 18,5 mln pogon metrlik maqsad esa erishilgan 17,336 mln pogon metrdan atigi 6,7 foizga yuqori. Bu maqsadli ko‘rsatkichlarning mavjud salohiyatga nisbatan past belgilanganini va ularni yuqori qayta ishlash bo‘g‘inlari bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Tarmoqni rag‘batlantirishning fiskal mexanizmlari 2026-yildan kengaytirildi. 2026-yil 1-yanvardan 2029-yil 1-yanvarga qadar pillachilik klasterlarining pilla yetishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan bino va inshootlari mol-mulk solig‘idan, ular egallagan yer uchastkalari yer solig‘idan ozod qilinadi; ipakchilik faoliyatidan olingan daromadi jami daromadining kamida 70 foizini tashkil etgan korxonalar uchun foyda solig‘i 2 foiz miqdorida belgilanadi; urug‘chilik korxonalariga jalb etiladigan har bir mavsumiy ishchi oylik ish haqining 50 foizi, biroq mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 2 baravaridan oshmagan qismi kompensatsiya qilib beriladi [6].

Ijtimoiy targetlash mexanizmi sifatida kam daromadli, ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarni tarmoqqa jalb etish “mahalla yettiligi” orqali tashkil etilib, aholiga 1 kg pilla qiymatining 35 foizi miqdorida subsidiya hamda parvarish jihozlari xaridiga 20 mln so‘mgacha ssuda ajratish yo‘lga qo‘yildi [3]. Farg‘ona viloyati amaliyotida kooperativ shaklda qurt boqqan har bir oila boshlig‘iga 4 mln so‘m subsidiya, topshirilgan har bir kilogramm tirik pilla uchun qo‘shimcha 15 ming so‘m subsidiya belgilangan [7].

Mazkur chora-tadbirlar tarmoqni ijtimoiy siyosat vositasi sifatida ishlatish imkonini beradi. Ayni paytda ular institutsional jihatdan muhim xavfni ham keltirib chiqaradi: subsidiya va imtiyozlarning aksariyati mahsulot hajmiga, ya’ni kilogramm pillaga bog‘langan bo‘lib, sifat sinfiga yoki yakuniy mahsulotning qo‘shilgan qiymatiga bog‘lanmagan. Yuqoridagi statistik tahlil natijalari - qayta ishlash koeffitsientining sakkiz yillik turg‘unligi (V = 2,2 foiz) va qo‘shilgan qiymat intensivligida ishonchli o‘sish trendining yo‘qligi ($R^2 = 0,005$) - aynan shu rag‘batlantirish mexanizmining oqibati sifatida talqin qilinishi mumkin.

Amaldagi boshqaruv modelida “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi bir vaqtning o‘zida tarmoqni tartibga soluvchi, koordinatsiya qiluvchi va xo‘jalik yurituvchi subyekt vazifalarini bajaradi [1]. Bunday model islohotlarning boshlang‘ich bosqichida tarmoqni tez tiklash imkonini bergan bo‘lsa-da, bozor tamoyillariga o‘tish sharoitida manfaatlar to‘qnashuvi xavfini yuzaga keltiradi (6-jadval).

6-jadval

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi boshqaruvi funksiyalarining amaldagi va taklif etilayotgan taqsimoti

Funksiyalar	Amaldagi holat	Taklif etilayotgan model
Siyosat va normativ tartibga solish	“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi	Tarmoqlararo kengash (Sanoat va Qishloq xo‘jaligi vazirliklari ishtirokida)
Sifat standartlari va sertifikatlash	tarqoq, tarmoq ichida	“O‘zstandart” agentligi va akkreditatsiyalangan mustaqil laboratoriyalar
Xo‘jalik faoliyati (xarid, qayta ishlash, eksport)	uyushma va klasterlar	faqat klasterlar va xususiy korxonalar
Statistik hisob va monitoring	idoraviy hisobotlar	yagona raqamli axborot tizimi, ochiq ma’lumotlar
Ijtimoiy targetlash	“mahalla yettiligi”	saqlanadi, ijtimoiy reyestr bilan integratsiya qilinadi

Manba: “Amaldagi holat” ustuni “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar [1] va tarmoqni bozor tamoyillariga o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar [2] asosida umumlashtirilgan. “Taklif etilayotgan model” ustuni global qiymat zanjirlarini boshqarish nazariyasi [9, 10] hamda mazkur tadqiqotning statistik natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy ishlanma hisoblanadi.

Tahlil natijasida tarmoq boshqaruvining to‘rtta tizimli muammosi aniqlandi. Birinchidan, tartibga soluvchi va xo‘jalik yurituvchi funksiyalarning bir tashkilotda birlashganligi. Ikkinchidan, rag‘batlantirish tizimining hajmga yo‘naltirilganligi, buning natijasida qayta ishlash chuqurligi koeffitsienti sakkiz yil davomida o‘zgarmagan. Uchinchidan, investitsiyalarning yuqori qayta ishlash bosqichlariga yetarlicha yo‘naltirilmaganligi ($r = 0{,}011$). To‘rtinchidan, eksport tushumining tashqi konyunkturaga yuqori bog‘liqligi va bozor diversifikatsiyasining pastligi ($V = 32{,}9$ foiz).

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan iqtisodiy-statistik tahlil quyidagi asosiy xulosani bermoqda: 2017-2025-yillarda O‘zbekiston ipak sanoati miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli natijalarga erishgan - tirik pilla yetishtirish 2,40 barobar, xom ipak ishlab chiqarish 6,07 barobar, eksport hajmi 2,82 barobar, bandlik esa 4,68 barobar oshgan. Biroq sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha tarmoq turg‘un holatda qolmoqda: pilladan xom ipak chiqishi koeffitsienti 2018-yildan buyon o‘rtacha 10,53 foiz atrofida o‘zgarmagan (variatsiya koeffitsienti 2,2 foiz), qo‘shilgan qiymat intensivligi esa yillik atigi 2,0 foizga o‘sgan va unda statistik jihatdan ishonchli trend mavjud emas ($R^2 = 0{,}005$). 2030-yilga belgilangan maqsadlarga erishish uchun ushbu ko‘rsatkichning yiliga o‘rtacha 19,0 foizga o‘sishi talab etiladi, ya’ni mavjud tendensiyadan qariyb o‘n barobar yuqori sur’at zarur.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

birinchidan, tartibga soluvchi va xo‘jalik yurituvchi funksiyalarni ajratish, ya’ni “O‘zbekipaksanoat” uyushmasining tijorat funksiyalarini bosqichma-bosqich klasterlarga o‘tkazib, uyushmani siyosat, standartlar va koordinatsiya organi maqomiga o‘tkazish. Kutilayotgan natija: 2028-yilga qadar uyushmaning bevosita xo‘jalik operatsiyalaridagi ulushini nolga tushirish;

ikkinchidan, “O‘zstandart” agentligi bilan birgalikda pilla va xom ipakning xalqaro tasniflash tizimiga muvofiq sifat sinflarini joriy etish, viloyatlarda akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalari tarmog‘ini tashkil etish va xarid narxini sifat sinfiga bog‘lash. Kutilayotgan natija: pilladan xom ipak chiqishi koeffitsientini 2030-yilga qadar 10,5 foizdan 12,5 foizga ko‘tarish;

uchinchidan, 2026-2029-yillarga belgilangan soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqini korxonaning qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichiga bog‘lash, ya’ni imtiyozni avtomatik emas, shartli tarzda berish. Kutilayotgan natija: imtiyoz olayotgan korxonalar bo‘yicha VAI ko‘rsatkichining yillik kamida 15 foizli o‘sishi;

to‘rtinchidan, investitsiya siyosatini qayta yo‘naltirish - investitsiya loyihalarini tanlashda asosiy mezon sifatida yaratiladigan qo‘shilgan qiymat va doimiy ish o‘rinlari sonini belgilash. Kutilayotgan natija: doimiy bandlik ulushini 2025-yildagi 7,7 foizdan 2030-yilga qadar kamida 20 foizga yetkazish;

beshinchidan, eksport barqarorligini ta’minlash - bozorlarni diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli shartnomalar ulushini oshirish orqali eksport qatorining variatsiya koeffitsientini 32,9 foizdan 15 foizdan past darajaga tushirish;

oltinchidan, urug‘chilikda barqarorlikni ta’minlash - naslli urug‘chilik stansiyalarini tiklash hamda yangi urug‘chilik korxonalarini ishga tushirish bo‘yicha bosqichli natijaviy ko‘rsatkichlarni joriy etish. Kutilayotgan natija: mahalliy urug‘ ulushining yillik tebranishi 10 foiz punktdan oshmagan holda 2030-yilga qadar 75 foizga yetkazish;

yettinchidan, ozuqa bazasi, korxonalar reyestri, urug‘lik va pilla xomashyosi hajmlari hamda qabul punktlarini real vaqt rejimida qamrab oluvchi yagona axborot tizimini Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda ishga tushirish. Kutilayotgan natija: tarmoq bo‘yicha oylik statistik hisobotni to‘liq raqamlashtirish;

sakkizinchidan, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda savdo vakolatxonalari orqali tayyor mahsulot eksportini kengaytirish, Marg‘ilon atlasi va adrasi kabi an’anaviy mahsulotlarni geografik ko‘rsatkich sifatida himoya qilish. Kutilayotgan natija: ipak mato ishlab chiqarish bo‘yicha 2030-yilgi maqsadni 18,5 mln pogon metrdan kamida 25 mln pogon metrga oshirish.

Xulosa o‘rnida aytganda, ipak sanoati misolida sanoat siyosatining samaradorligi imtiyozlar hajmi bilan emas, balki ularning natijaviy shartlarga bog‘langanligi va tarmoq boshqaruvidagi funksiyalarning aniq taqsimlanganligi bilan belgilanadi. Statistik tahlil ko‘rsatdiki, hajmga yo‘naltirilgan rag‘batlantirish tizimi xomashyo ishlab chiqarishni jadal oshirish imkonini bergan, ammo qayta ishlash chuqurligi va qo‘shilgan qiymat barqarorligini ta’minlamagan. Shu bois tarmoq siyosatining og‘irlik markazini yetishtirish bosqichidan qayta ishlash va sifat bosqichiga ko‘chirish davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2856 sonli qarori. - https://president.uz/oz/lists/view/364
2. Ipakchilik sohasining bozor tamoyillariga bosqichma-bosqich o‘tkazilishi to‘g‘risida ma’lumot. - Spot.uz, 2024-yil.
3. Ipakchilik sohasini yangi tizim asosida rivojlantirish chora-tadbirlari taqdimoti. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, 2026-yil 17-fevral. - https://president.uz/oz/lists/view/8950
4. “Xom ipak sifatiga ta’sir etuvchi omillar va resurstejamkor texnologiyalar” mavzusidagi ilmiy ish (dissertatsiya / tadqiqot) Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutining “Ipak texnologiyasi” kafedrasi professori, texnika fanlari doktori Islambekova Nigora Murtazayevna va uning shogirdlari (jumladan, S. Xatmullina, S. Xaydarov va boshqalar) tomonidan olib borilgan yirik ilmiy tadqiqotlar
5. Pillachilik sohasining 2017-2025-yillar bo‘yicha ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma’lumot. - T.: “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi.
6. Pillachilik bilan shug‘ullanuvchilarga soliq imtiyozlari va subsidiyalar berilishi to‘g‘risida. - Gazeta.uz, 2026-yil 10-mart.
7. Pilla yetishtirish serdaromad sohaga aylanmoqda: Farg‘ona viloyati amaliyoti. - UzA, 2026-yil.
8. O‘zbekiston ipak va ipak mahsulotlari eksporti bo‘yicha ma’lumot. - O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. - https://stat.uz/
9. Gereffi G., Humphrey J., Sturgeon T. The governance of global value chains // Review of International Political Economy. - 2005. - Vol. 12, No. 1. - P. 78-104.
10. Rodrik D. Normalizing Industrial Policy. - Washington: World Bank, 2008. - 42 p.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti: https://stat.uz/